

Mavzu: Gapning bosh bo'laklari



Mehnat insonni
tarbiyalaydi.



- Husnixat yozuvidagi gapning bosh bo'laklarini aniqlang.
- (*Nima?*) tarbiyalaydi – mehnat (*ega*).
- Mehnat (*Nima qiladi?*) – tarbiyalaydi (*kesim*).



1. Gapning bosh bo'laklarini ayting.
2. Gapda ish-harakatning bajaruvchisini bildirgan bo'lak –
3. Gapning egasi bajargan ish-harakatni bildirgan bo'lak –
4. *Kim?, nima?, kimlar?, nimalar?*
so'roqlariga javob bo'ladigan bo'lak –
5. *Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?*
so'roqlariga javob bo'ladigan bo'lak –



1-mashq. O'qing. Ajratib ko'rsatilgan gaplardagi bosh bo'laklarni yozing.

Namuna: Shamol paydo bo'ladi.

Shamol havoning harakatlanishidan paydo bo'ladi. Bu tabiat uchun juda muhim jarayon hisoblanadi. **Yengil shabada insonga xush yoqadi.** U issiq kunda salqinlik olib keladi. **Yoqimli shabada daraxt barglarini mayin tebratadi.** Biroq kuchli shamol ba'zan noqulaylik tug'diradi. U chang-to'zon ko'tarib, tabiatga va insonlarga zarar yetkazishi ham mumkin.





2-mashq. Ko'chiring. *Nima qildi?, nima qilyapti?, nima qiladi?* savollariga javob bo'lgan so'zlarni tegishlicha belgilang.

1. Sinf o'quvchilari musobaqada faol qatnashyapti. 2. Ekinlar tuproqdan yaxshi oziqlanadi. 3. Kutubxonachi javonlarni yangi kitoblar bilan boyitdi.



Kim?, nima? so'roqlariga javob bo'lgan so'zlarni toping.


Qo'g'irchoq

Jingalak soch qo'g'irchoq,
Burni xuddi qo'ng'iroq.
Labi qizil g'unchaday,
Yuzi issiq kulchaday.
Uni Ra'no yo'rgaklab,
Qadam bosar o'rdakday.

“Diktantlar to'plami”dan



3-mashq. Ega va kesimlarni mazmunan moslashtirib o'qing.



- Ega va kesim juftligiga ikkinchi darajali bo'laklarni qo'shib, gaplarni to'ldiring.



4-mashq. Ko'chiring. Gaplarning bosh bo'laklarini belgilang.

1. Shamol daraxt shoxlarini tebratdi. 2. Hilola bog'dan qizil gullarni terdi. 3. Bolalar bog'dan toshbaqa topib oldilar. 4. Ko'rkam bog' yaratildi. 5. Har yili dadam Samarqandga boradi.



5-mashq. O'qing. Ertak qahramonlari yodingizga tushdimi?

Bo'g'irsoq o'rmonda dumalab ketayotgan edi.
Yo'lida unga Quyon duch kelibdi.

– Bo'g'irsoq, Bo'g'irsoq, seni yeyman! – debdi Quyon.

– Meni yema, Quyonvoy, senga topishmoq aytib beraman, – debdi Bo'g'irsoq.

Bo'g'irsoq topishmoq aytibdi. Quyon topishmoqning javobini topgunicha u qochib ketibdi.



- Bo'g'irsoqning topishmog'ini siz ham topishga harakat qiling.

Boshim uzra parragim,
Aylansa parvozim bor.
Ninachiga² o'xshayman,
Dumginamda nozim bor.
Goho odam, goh yukni
Olib quchaman ko'kni.



- Topishmoqning javobi ishtirokida gap tuzing.
- Gapni bosh bo'laklar asosida tahlil qiling.



6-mashq. Ko'chiring. Gaplarning bosh bo'laklarini aniqlab, tegishli belgilang.

Karnay-surnay sadolari ostida bayram boshlandi. Qizaloqlar milliy¹ liboslar kiydilar. Dasturxonlar yozildi. Noz-ne'matlar qo'yildi. Davrada o'yin-kulgi qizidi. Yurtim bo'ylab bayram shukuhi avj oldi.

- O'zbekistonda qanday bayramlar nishonlanadi?

